



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i04.067>

“RIYOZ-UL MUSLIMIYN” - MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Xolmirzayev Xayrullo Lutfillojon o‘g‘li,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com

Telefon: +998939244337

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davrida yashab ijod qilgan tarixchi-shoir Shamsiddin Shavqiy (1805-1889)ning “Riyozul muslimiyn” dostoni va unda keltirilgan ba’zi bir tarixiy ma’lumotlar, tadbirkor Valiboy Yo‘ldashev faoliyati hamda Gulja shahri aholisining Jarkent shahriga ko‘chib kelishi bilan bo‘g‘liq tarixiy jarayonlar yozma va arxiv ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Shamsiddin Shavqiy, Riyozul muslimin, Valiboy Yo‘ldoshev, G‘ulja, Jarkent, tarixiy doston, migratsiya, XIX asr.

Аннотация: В данной статье анализируется эпическая поэма «Рийозул Муслимин» историка-поэта Шамсиддина Шавкий (1805-1889), жившего и работавшего во времена Кокандского ханства, а также некоторые содержащиеся в ней исторические сведения, деятельность предпринимателя Валибоя Юлдашева и исторические процессы, связанные с миграцией жителей Гульджи в Жаркент, на основе письменных и архивных данных.

Ключевые слова: Шамсиддин Шавкий, Рийозул Муслимин, Валибой Юлдашев, Гульджа, Жаркент, исторический эпос, миграция, XIX век.

Abstract: This article analyzes the epic poem "Riyozul Muslimin" by the historian-poet Shamsiddin Shavqiy (1805-1889), who lived and worked during the Kokand Khanate, and some historical information contained in it, the activities of the entrepreneur Valiboy Yu'ldashev, and the historical processes associated with the migration of the residents of Gulja to Zharkent based on written and archival information.

Keywords: Shamsiddin Shavqiy, Riyozul Muslimin, Valiboy Yu'ldashev, Gulja, Zharkent, historical epic, migration, 19th century.

KIRISH. Kishilik tarixidan ma’lumki, asrlar davomida ko‘plab xalqlar tabiiy, harbiy, siyosiy yoki ijtimoiy sabablar tufayli o‘z yashab turgan hududlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladilar. Bu holat uzoq o‘tmishda ham, hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Xuddi shunday vaziyat XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududida ham sodir bo‘lgan bo‘lib, bunga siyosiy omillar sabab qilib ko‘rsatiladi. Ushbu xalqlarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishi haqidagi ma’lumotlar ko‘plab tarixiy asarlarda bayon etilgan. Shunday asarlardan biri XIX asrda yashab ijod qilgan o‘zbek mumtoz tarixchilaridan biri

bo‘lgan Shamsiddin Shavqiyning “Riyozul muslimin” dostoni hisoblanadi. Dostonda Sharqiy Turkiston musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, diniy bosimlar, G‘ulja shahri aholisining o‘z yashab turgan hududidan ko‘chishi hamda hozirgi Qozog‘iston Respublikasi Olmaota viloyati hududiga ko‘chib kelishi va bu yerda yangi Jarkent shahrining bunyod etilishi voqealari bayon etilgan. Shuningdek, dostonda asosan G‘ulja shahrida istiqomat qilgan Valiboy Yo‘ldoshev (1839-1916) ismli savdogarning faoliyati bayon etilgan bo‘lib, Valiboy Yo‘ldoshev 1881-1882-yillarda Sharqiy Turkistonda joylashgan G‘ulja(Gulja) shahri aholisining Turkiston general gubernatorligi Yettisuv viloyati hududiga ko‘chib kelishi va Rossiya imperiyasi fuqaroligini olishida hamda yangi Jarkent shahrini barpo etilishida faol qatnashgan shaxslardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

“Riyozul muslimin” dostoni tarixiy-adabiy manba sifatida muhim ahamiyatga hisoblanadi. Chunki unda migratsiya jarayonlari, siyosiy munosabatlar va jamiyat hayoti aks etgan.

“Riyozul muslimin” dostoni 320 misradan iborat bo‘lib, shoir hayotining so‘nggi davrida yaratilgan. Ushbu doston O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari institutining Hamid Sulaymonov nomidagi fondida 1872-raqam ostida qayd etilgan qo‘lyozma tarkibida saqlanib qolgan. Dostonning kirish qismida boshqa o‘sha davr tarixiy asarlaridagi kabi butun mavjudotni yaratgan Alloh taolaga hamdu-sano, Rasuli akram sollallohu va sallamga durudu salovotlar va Allohga iltijolar ruhida sug‘orilgan satrlar bitilgan. Mumtoz merosimizni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hamdlar har qanday adabiy asarning ibtidosi hisoblangan. Hamdsiz biror mavzuga qo‘l urilmagan⁸³. Kirish qismi jami 9-sahifaga yozilgan bo‘lib qo‘lyozmaning 124-132-sahifalarida joylashgan. Kirish qismi 88 bayt yoki 176 misradan iborat. Keyingi qismlarda esa Valiboy Yo‘ldoshev hamda unig amalga oshirgan ishlari hikoya qilinadi. Dostonda Shavqiy bu shaxsni uddaburonligi, ishbilarmonligini ta’riflab shunday yozadi: “Ali Valisher duldul⁸⁴ suvor⁸⁵.”

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Xitoyda hukmronlik qilgan manjur imperatorlari sulolasi, ya’ni Chin imperiyasi (1644-1911) davrida musulmonlar haddan ortiq zulmlarga duchor bo‘lganlar. Islom diniga e’tiqod qilmagan hukmron doiralar musulmonlarga nisbatan ta’ziqni kuchaytiradi. Shunday vaziyatda o‘z ko‘plab musulmon aholi omon qolish va tinch-xotirjam yashash chorasini izlab boshqa hududlarga ko‘chib o‘sha yerlarda emin-erkin hayot kechirishga harakat qilganlar. Shunday holga G‘ulja shahri aholisi ham duch keladi va Rossiya imperiyasi hududlariga ko‘chib o‘tishga qaror qilishadi. Albatta bir joydan ikkinchi joyga ko‘p miqdordagi aholini ko‘chib o‘tishi osonlikcha amalga oshadigan ish emas edi. Qolaversa bu davrda davlatlar tomonidan chegaralar belgilab olingan edi. Shuningdek ko‘chish qaroriga Rossiya va Xitoy o‘rtasidagi chegaralarni aniqlash va tartibga solish bo‘yicha 1881-yil 24-fevralda (12-fevral) imzolangan Peterburg shartnomasi (Ili shartnomasi) o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Chunki bu shartnoma natijasida 1871-yildan beri Rossiya nazoratida bo‘lib turgan Ili o‘lkasini (G‘ulja) Xitoyga qaytarilishiga kelishib olinadi. Natijada G‘uljada istiqomat qiluvchi musulmonlar ahvoli yanada og‘irlasha

83 Абдулахатов Н., Кўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавкий. – Toshkent. 2021.6-61.

84 Duldul - Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar mingan va keyincha hazrat Aliga tortiq etgan uchar otning ismi yoki laqabi.

85 Devoni Shavqiy - 2. O‘zFA Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.b-133

boshlaydi. “Riyoziy musulmin” dostonida bayon etilishicha G‘uljadagi musulmonlar ahvoli tang holatga kelgach, o‘zaro kengashib boshqa joyga ko‘chishga qaror qiladilar va bu ishni tashkillashtirishga mas‘ul sifatida o‘zlarining ichlaridan bo‘lgan ulamolardan biri Nosir a‘lamning avlodi hisoblanuvchi yirik savdogar Valiboyni tayinlaydilar. Chunki bu vaqtda Valiboy yirik savdogar hisoblanib ko‘plab hududlarni bevosita savdo ishlari o‘rqali borib ko‘rgan edi. Ko‘chish ishlariga Valiboyni tanlanishi dostonida quyidagicha bayon etiladi: “Bu ishlarga sardor o‘lub Voli boy, Shahar o‘rniga toptilar necha joy⁸⁶.” Ko‘chish qarori qabul qilinganidan so‘ng Valiboy ko‘plab joylarga o‘zining yaqin odamlarini yuborib o‘zlari uchun munosib joy izlaydi. Bu ishda unga Ali Akbar hoji va onasi Hojiya xonim yordam beradilar. Valiboy Yo‘ldoshev tez orada ko‘chib borish mumkin bo‘lgan bir necha variantlarni taqdim etadi. Takliflar orasidan Yettisuv hududi tanlanadi va ko‘chish harakati boshlanadi.

Rossiya imperiyasi hukmron doirasi G‘uljaliklarning imperiya hududiga ko‘chib kelishlariga ruxsat beradi. Ko‘chib keluvchilar masalasini hal qilish va boshqa diplomatik masalalarni ko‘rib chiqish va hal qilish uchun Turkiston general gubernatori tomonidan Sirdaryo viloyati Bosh shtab qo‘shinlari qo‘mondoni yordamchisi general-mayor Frideni maxsus topshiriq bilan Sharqiy Turkistonga yuboradi. General-mayor Fridening jo‘natilishi buyrug‘i O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanib qolgan⁸⁷.

Ko‘chib keluvchilar soni ancha ko‘pchilikni tashkil etganligi sababli bu holatga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek ko‘chib keluvchilarga Rossiya imperiyasi hukumati o‘zining bir qancha talablarini qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida ko‘chirish ishlari va shartlarini o‘z ichiga olgan maxsus ko‘rsatma saqlanib qolgan bo‘lib uning matni quyidagicha:

Turkiston general-gubernatorining 1882-yil 10-yanvardagi №79-sonli farmoyishida, G‘ulja shahrini topshirish bo‘yicha komissar — general-mayor Fride nomiga yo‘llangan ko‘rsatmaga ko‘ra, ko‘chirilish G‘ulja tumani aholisi orasidan tilxat (majburiyatnoma) olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Unga ko‘ra, kimki Imperiya hududiga ko‘chib o‘tib, Rossiya fuqaroligini qabul qilishni istasa, quyidagi shartlarga qat’iy amal qilishlari kerak.

a) Emigrantlar ko‘chirish uchun hukumatdan moddiy yordam so‘ramasliklari kerak.

b) Rossiya imperiyasi hududlariga ko‘chib kelgan G‘ulja tumani aholisi, qabilasi va dinidan qat’i nazar, qirg‘izlardan tashqari, yangi joylarga joylashib, joylashtirgandan so‘ng umumiy asosda harbiy xizmatni o‘tashga chaqiriladi yoki Yettisuv viloyati kazaklari armiyasiga yoziladi.

v) G‘uljadan Rossiya imperiyasiga ko‘chib kelganlar rus tilini o‘rganishi, rus tilini o‘qish va yozishni bilishi kerak. Buning uchun har bir mahalliy yoki davlat maktabida jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan rus tili o‘qituvchisi bo‘lishi kerak.⁸⁸

Yuqoridagi shart va majburiyatlarni qabul qilgandan so‘nggina Valiboy boshchiligida G‘ulja aholisining bir qismi ko‘plab aravalarga o‘z yuklarini ortib Yettisuv viloyatining Yorkat mavzesiga ko‘chib keladilar va bu yerda yangi Jarkent shahri qurilishini boshlab yuboradilar. Yangi shahar qurilishi va ko‘chib kelgan aholini joylashtirish ishlariga general gubernatorlik hukumati tomonidan mayor Bikov mas‘ul etib tayinlanadi.

86 Devoni Shavqiy - 2. O‘zFA Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.b-134

87 O‘z.MA. I-1-fond. 35-ro‘yxat. 15-ish. 206- varag‘.

88 O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 23-ish. 4b- varag‘.

Ba'zi manbalarda ularning soni 45307 kishidan ortiq bo'lganligini ko'rsatiladi⁸⁹. Yana bir manbada Jarkent shahrini qurilishi 1881-yilning kuzida Turkiston general gubernatoriga ko'rsatilgani va shaharning qurilish ishlari 1882-yilning bahorida boshlangani yozilgan. Shahar qurilishi uch qismdan iborat bo'lishi, har bir qism ma'lum dahalarga va dahalarda esa o'znavbatida xonadonlar joylashtiriladi⁹⁰. Yana bir hujjatga ko'ra Guljadan aholi 1881-yil 13-iyunda kela boshlagan yoki Jarkent shahrini qurish harakati boshlangan. Aynan shu hujjatga ko'ra dastlabki Jarkent shahri loyihasida Guljadan 500 oila kelishi mo'ljallanadi, 1882-yilda esa 1500 oilaga plus 400 rus oilasiga mo'ljallanadi⁹¹. O'zbekiston Milliy Arxividagi yana bir hujjatda 1881-yilning o'zida Guljadan Jarkentga jami 2736 ta oila yoki 11063 kishi ko'chib kelganligi yozilgan.⁹² Boshqa bir hujjatda esa 1891-yil 27-iyun holatiga Jarkentda rasmiy ro'yxatga olingan erkaklar soni 6038 kishini tashkil etgan. Ko'chib kelganlar o'zlari joylashgan hududni tezda o'zlashtiradilar. Jarkent hududida tez orada bir nechta aholi punktlari ya'ni mavzelar tashkil etiladi. Bular quyidagilar: Birinchi kattalik, Ikkinchi kattalik, Chulukay, Yangi Toshkent, Eski Toshkent, Solonkent, Ankent, Kipek-Yuzi, Penjim, Xorgos.⁹³

Valiboy Yo'ldoshev Jarkentga ko'chib kelgach, mahalliy aholi oqsoqoli Jamoliddin Jalilovning yaqin maslahatchisiga aylangan. O'zi bilan ko'chib kelgan aholi uchun uylar bunyod etgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasiga ham savdogar, ham elchi sifatida borgan. Oqibatda Rossiya imperiya siyosiy doiralarining e'tiboriga tushgan. Ikki o'rtada o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga o'z hissasini qo'shgani uchun Rossiya imperiyasining bir necha orden va medallariga sazovor bo'lgan. Shuningdek, u Chin imperiyasi tomonidan ham orden va medallar bilan taqdirlangan.

U juda iste'dodli savdogar bo'lgan. Ili daryosi bo'yida bo'lgan Yorkatda dastlab u uzumzorlar barpo etadi. Uzumlarni Buxoro, Toshkent va Rossiyaga olib borib sotgan⁹⁴. Valiboyning birgina Jarkent shahrini o'zida 30 ga yaqin yer uchastkasi bo'lganligi va bu uchastkalarni ko'p qismiga uy-joy qurib o'zi bilan ko'chib kelganlarga tekinga berganligi ham manbalarda qayd etilgan⁹⁵. Uning avlodlari hozir ham Jarkent, Bishkek, Alma-Ota, Toshkentda istiqomat qiladi.

XULOSA.

Dostonda G'uljada Valiboyga ergashmaganlarning taqdiri qanday bo'lganligi haqida bayon etilmagan. Lekin boshqa bir necha manbalarda bu masalaga to'xtalib o'tilgan. Shamsiddin Shavqiyning "Riyoziy-ul muslimiyn" dostoni shunchaki saxovatli Voliyboyini madh etish bilangina chaklanib qolmay, balki xalqlarning turmush tarzi, migratsiyasi va uning sabablarini ham ochib beradi. Shavqiy Valiboy shaxsiyati orqali o'z millati, yaqinlari taqdiriga beetibor bo'lmagan, ularning kelajagi haqida qayrug'uradigan vatanparvar kishini tasvirlashga harakat qiladi. Bizningcha shoir bu maqsadiga erisha olgan. Xulosa qilib aytganda, Shamsiddin Shavqiyning ushbu dostoni o'z davrining muhim tarixiy voqealarini yoritadi. U milliy tarix va adabiyotimizni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

89 Абдулахатов Н., Қўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Toshkent. 2021.6-63

90 O'z.MA. I-1-fond. 18-ro'yxat. 44-ish. 6- varag'.

91 O'z.MA. I-1-fond. 18-ro'yxat. 44-ish. 25- varag'.

92 O'z.MA. I-1-fond. 18-ro'yxat. 23-ish. 16- varag'.

93 O'z.MA. I-1-fond. 18-ro'yxat. 23-ish. 17- varag'.

94 Абдулахатов Н., Қўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Toshkent. 2021.6-64

95 O'z.MA. I-1-fond. 18-ro'yxat. 44-ish. 1- varag'.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдулахатов Н., Кўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Toshkent. 2021.6-61.
2. Devoni Shavqiy - 2. O‘zFA Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.
3. O‘z.MA. I-1-fond. 35-ro‘yxat. 15-ish. 206- varag‘.
4. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 23-ish. 4b- varag‘.
5. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 44-ish. 6- varag‘.
6. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 44-ish. 25- varag‘.
7. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 23-ish. 16- varag‘.
8. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 23-ish. 17- varag‘.
9. O‘z.MA. I-1-fond. 18-ro‘yxat. 44-ish. 1- varag‘.